# Aholining inflyatsion kutilmalari

Dekabr oyida aholining kelgusi **12 oylik** inflyatsion kutilmalari o‘tgan oyga nisbatan o‘zgarishsiz saqlanib qolib, **11,5 foizga** teng bo‘ldi.

**Dekabr, 2025** | **Jami 3 809 ta respondent qatnashdi**




| **Inflyatsion kutilmalarning omillari** (respondentlar ulushi, foizda) | 2025 | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | yan | fev | mar | apr | may | iyun | iyul | avg | sen | okt | noy | dek |
| Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi | 57 | 63 | 59 | 59 | 57 | 50 | 51 | 48 | 46 | 46 | 49 | 50 |
| Yoqilg‘i va energiya narxining qimmatlashishi | 50 | 52 | 48 | 47 | 49 | 45 | 45 | 41 | 41 | 42 | 40 | 47 |
| Transport xarajatlarining oshishi | 30 | 31 | 28 | 29 | 32 | 30 | 27 | 26 | 25 | 25 | 24 | 29 |
| Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi | 26 | 28 | 28 | 26 | 25 | 22 | 24 | 26 | 25 | 27 | 26 | 26 |
| Ish haqi va nafaqalarning oshishi | 22 | 23 | 20 | 18 | 22 | 35 | 34 | 31 | 27 | 26 | 23 | 25 |
| Monopoliya va narxlarning sun’iy oshirilishi | 25 | 32 | 26 | 26 | 26 | 24 | 24 | 22 | 22 | 23 | 20 | 24 |
| Valyuta kursining o‘zgarishi | 46 | 41 | 39 | 38 | 37 | 27 | 30 | 24 | 22 | 22 | 20 | 23 |

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy omillar sifatida **yoqilg‘i va energiya, transport xarajatlarining oshishi, narxlarning sun’iy oshirilishi** hamda **valyuta kursining o‘zgarishini** qayd etgan aholi respondentlari ulushi ortdi.

# Tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari

Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari esa oʻtgan oyga nisbatan **0,6 foiz** bandga yuqorilab, **11,1 foizni** tashkil etdi.

**Dekabr, 2025** | **Jami 1 736 ta respondent qatnashdi**




| **Inflyatsion kutilmalarning omillari** (respondentlar ulushi, foizda) | 2025 | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | yan | fev | mar | apr | may | iyun | iyul | avg | sen | okt | noy | dek |
| Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi | 54 | 58 | 52 | 55 | 54 | 47 | 47 | 45 | 44 | 47 | 46 | 46 |
| Yoqilgʻi va energiya resurslari qimmatlashishi | 49 | 50 | 45 | 46 | 48 | 43 | 42 | 40 | 41 | 45 | 42 | 45 |
| Transport xarajatlarining oshishi | 32 | 34 | 31 | 31 | 37 | 32 | 31 | 31 | 30 | 33 | 30 | 37 |
| Ish haqi va nafaqalarning oshishi | 26 | 22 | 23 | 23 | 24 | 33 | 34 | 33 | 29 | 25 | 23 | 26 |
| Xomashyo narxlarining qimmatlashishi | 25 | 27 | 25 | 27 | 28 | 25 | 25 | 24 | 26 | 28 | 26 | 25 |
| Soliq yukining yuqoriligi | 24 | 27 | 26 | 27 | 27 | 25 | 26 | 24 | 24 | 23 | 21 | 24 |
| Valyuta kursining oʻzgarishi | 51 | 43 | 43 | 43 | 40 | 31 | 31 | 25 | 22 | 21 | 19 | 23 |

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim koʻrsatishi mumkin boʻlgan asosiy omillar sifatida **xomashyo narxlarining qimmatlashishini** belgilagan tadbirkorlar ulushi kamaygan boʻlsa, **transport xarajatlarining oshishi, yoqilgʻi va energiya resurslari qimmatlashishi, valyuta kursining oʻzgarishi** kabilarni taʼkidlaganlar ulushi koʻpaydi.

# Inflyatsion kutilmalar – sohalar kesimida

Aholining yuqori inflyatsion kutilmalari **pensionerlar** tomonidan bildirilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **talabalar** tomonidan qayd etildi.

**Dekabr, 2025** | **Respondentlar: aholi – 3 809 ta, tadbirkorlar – 1 736 ta**







Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **qurilish** sohasida faoliyat olib boradigan korxonalar tomonidan qayd etilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **madaniyat** sohasida kuzatildi.

# Inflyatsion kutilmalar – hududlar kesimida

Aholi inflyatsion kutilmalarining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past inflyatsion kutilmalar **Samarqand viloyatida** istiqomat qilayotgan aholi tomonidan qayd etildi.

**Dekabr, 2025** | **Respondentlar: aholi – 3 809 ta, tadbirkorlar – 1 736 ta**







Tadbirkorlik subyektlarining yuqori inflyatsion kutilmalari **Toshkent shahrida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past kutilmalar **Andijon viloyatida** faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.

# Inflyatsion kutilmalar (aholi)

Daromadlari **4 mln so‘mdan yuqori** bo‘lgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.

**Dekabr, 2025** | **Jami 3 809 ta respondent qatnashdi**




## Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalar bo‘yicha javoblar taqsimoti



# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Dekabr oyi yakunlariga ko'ra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi o'tgan oyga nisbatan **0,2 foiz** bandga oshib, **12,0 foizni** qayd etdi.

**Dekabr, 2025** | **Jami 3 809 ta respondent qatnashdi**







Sezilgan inflyatsiya darajasining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** qayd etilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **Xorazm viloyatida** kuzatildi.

# Sezilgan inflyatsiya omillari (aholi)

Noyabr-dekabr oylarida aholi tomonidan narxlarida yuqori oʻsish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va xizmatlar

**Dekabr, 2025** | **Jami 3 809 ta respondent qatnashdi**



# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Daromadlari **4 mln so‘mdan yuqori** bo‘lgan aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.

**Dekabr, 2025** | **Jami 3 809 ta respondent qatnashdi**







Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **ta’lim** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo‘lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **maishiy xizmatlar** sohasi vakillari tomonidan qayd etildi.